

“QULOQVOY” ERTAGI VARIANTLARINING QIYOSIY TAHLILI**Laziza Orifova,***O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. maskur maqolada ertaklardagi variantlilik masalasi asosli dalillar yordamida ochib berilgan. Ertaklardagi variantlilik “Quloqvoy” sarlavhali o‘zbek xalq ertagi misolida yoritilgan. Shuningdek, ushbu sarlavha ostidagi turli ertaklar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: variantlilik, syujet, motiv, boshlama, midial qism, tugallanma, ertak aytuvchi, Quloqvoy.

Аннотация. В данной статье проблема вариативности в сказках раскрывается с помощью обоснованных доказательств. Вариантность в сказках освещена на примере узбекской народной сказки “Кулоковой”. Также были проанализированы различные сказки под этим заголовком.

Ключевые слова: вариантность, сюжет, мотив, начало, медиальная часть, завершение, сказочник, слушатель.

Annotation. In this article, the issue of variability in fairy tales is revealed using well-founded evidence. Variations in fairy tales are highlighted using the example of the Uzbek folk tale “Quloqvoy.” Also, various fairy tales under this title are analyzed.

Keywords: variation, plot, motif, beginning, medial part, conclusion, storyteller, listener.

Kirish. Folklorshunoslikda xalq og‘zaki ijodi namunalarining mavjudlik shaklini ifodalovchi eng muhim tushunchalardan biri — variantlilikdir. Ushbu hodisa asarning syujeti, kompozitsiyasi va obrazlar tizimida muayyan o‘zgarishlar bo‘lsa-da, uning umumiy mantiqiy asosi va bosh g‘oyasi saqlanib qolishi bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Og‘zaki ijodda esa variantlilik asarni og‘zaki ijro etish usulidan vujudga keladi. “Bir asarning syujet va kompozitsiyasida muhim o‘zgarishlar bilan bir necha nusxalarga ega bo‘lishi variantlilik xususiyatini hosil qiladi. Asar nomi bir xil bo‘lsa, undagi voqealar tizimi bir-biriga yaqin bo‘lsa, qahramonlar xatti-harakatida muayyan o‘xshashlik saqlansa, variantlilik”.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada “mitti qahramon” tipidagi o‘zbek xalq ertaklari, xususan, “Quloqvoy” (“Quloqboy”) ertagining turli variantlari qiyosiy tahlilga tortiladi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot jarayonida mazkur ertakning uchta mustaqil varianti aniqlandi. O‘zbek xalq ertaklari to‘plamlari orasida mitti qahramon tipiga mansub “Quloqvoy” ertagining yuqoridagi talablarga mos keluvchi uch xil shaklini uchratdik.

“Sumbulqush” to‘plamidagi “Quloqvoy” varianti (Toshkent viloyati, Habiba Ziyaeva repertuaridan).

“Gulpari” to‘plamidagi “Quloqvoy” varianti (Namangan viloyati, Murodilla Ziyodilla o‘g‘li repertuaridan).

“Odamtoy” to‘plamidagi “Quloqboy” varianti (Samarqand viloyati, Jiyanboy Kuchumboy o‘g‘li repertuaridan).

Ertaklar sarlavhasini lingvistik jihatdan tahlil qilsak, quloq soʻzi atoqli ot sifatida qoʻllanib unga subektiv baho beruvchi “voy” hamda “boy” qoʻshimchalari qoʻshilgan: “Subyektiv baho” ifodalovchi formalar otlarga qoʻshilib, subyektning shaxs yoki predmetga turlicha munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ertaklardagi ananaviy boshlamalar ham bir-birini takrorlamaydi. “Quloqvoy” sarlavhali birinchi ertak: “Bir bor ekan, bir yoʻq ekan. Qadim-qadim zamonda el-u yurt omon-omon boʻlganda, bir mamlakatda bir chol-u kampir oshini oshab, yoshini yoshab oʻtgan ekan” tarzida boshlansa, xuddi shunday sarlavhali ikkinchi ertak esa hech qanday ananaviy badiiy boʻyoqlarsiz hikoya qilish bilan boshlanadi: “Oʻtgan zamonda bir chol-kampir bor ekan”. “Quloqboy” ertagining boshlamasi esa yuqoridagi ertaklaremitsial qismidan tamoman farqli: Bor ekan-da yoʻq ekan, och ekan-da toʻq ekan. Bizningcha, bu holat ertak aytuvchilarning ijro mahorati mahsulidir. Boshlamalar turlicha boʻlsa-da, yechimini kutayotgan muammo bir xil- farzandsizlik. Befarzandlikdan aziyat chekayotgan qahramonlar esa yuqoridagi parchalardan anglanganidek, chol va kampirdir.: “Chol bilan kampirning bironta oʻgʻilmi-qizmi farzandlari yoʻq ekan”. “Chol oltmishga chiqibdi, kampir qirq beshga chiqibdi. Ularning bolalari yoʻq ekan”. “Quloqboy” ertagida: “bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning farzandi yoʻq ekan”.

Uch ertakning ham inetsial qismi befarzandlik motivi bilan boshlanadi. Befarzandlik tugunining yechimi, yaʼni, farzand paydo boʻlishi, uch ertakda turlicha tasvirlanadi. “Quloqvoy” nomli birinchi ertakda choliga ovqat olib borishga qiynalib turgan betob kampirga yordamchi sifatida toʻsatdan paydo boʻladi: “Cholim och qoladigan boʻldi. Ovqatni olib boray desam – kuchim yetmasa. Biron-bir oʻgʻil yo qizim boʻlganda kor kelib, ovqatni otasiga olib borgan boʻlardi”, deb qaygʻuribdi. Shunda gʻalati ovoz bilan birov yana gapiribdi:

— Onajon, onajon. Hadeb “bolam yoʻq, bolam yoʻq” deb xafa boʻlaverasizmi? Aytdim-ku otamga ovqatni men olib boraman, – debdi. Kampir hayron boʻlib alanglanib turgan ekan ostonaga yechgan kovushining ichidan bir quloqvoy chiqib kelib:

– Qani, ovqatingizni bering, otamga olib boraman. Qorinlari tozayam och qolgandir hali, – debdi”. Shunday sarlavhali ikkinchi ertakda odatiy homiladorlik kuzatiladi. suhbatlashib oʻtirganlarida kampir cholga qoʻyning qulogʻiga boshiqoronguligini aytibdi. Soʻng ertakda chol bozordan olib kelgan qirq qoʻyning kallasini kampir qay maqsadda pishirib yeganligi bayoni keltiriladi: “Kampir qirqta qoʻyning kallalarini pishirib, Quloqlarini yebdi. "Bu chol oʻlgurga bola tugʻib berayki, boqolmay qolsin”, deb hammasini yebdi. oylardan oy, kunlardan kun oʻtib, kampir tugʻadigan boʻlib boshlabdi. Chol oʻtin tergani chiqib ketgan ekan. Kampir biryoʻla qirqta bola tugʻibdi”. “Quloqboy” ertagida ham yuqoridagi ertakdagi kabi odatiy homiladorlik roʻy beradi: “Kundan kun, oydan oy oʻtib, cholning xotini homilador boʻlibdi. Kunlardan bir kun kampirni toʻlgʻoq tutibdi. Chol shundayqarasa, xotini yettita quloq tugʻgan emish”.

Ertaklarning midial qismiga e'tibor qaratsak, uch ertakning ham bu qismida tuya yutib yuborishi, bo'riga yem bo'lish motivlari mavjud biroq bu holat ertaklarda bir-biriga o'xshamagan tarzda turli tartibda ifodalangan. "Quloqvoy" sarlavhali birinchi ertakda: ola ho'kiz suzib yuborishi natijasida ariqqa tushib hushidan ketgan Quloqvoyni ko'k yoldor bo'ri yutib yuboradi. Och qolgan bo'ri qo'ylarni yeyish uchun yaqinlashganida bo'rining qornidagi Quloqvoyning cho'ponlarni xavfdan ogohlantirishi, ochlikdan bo'rining o'limi va mitti quloqvoyning uning ichidan chiqib, yantoq tagida dam olib yotgan vaqtda, karvon tuyalaridan birining yantoq bilan birga quloqvoyni yutib yuborishi, quloqvoyning karvonboshi so'ygan eng oxirgi tuyaning ichidan salomat chiqishi kabi tasvirlanadi. Shunday sarlavhali ikkinchi ertakda esa motivlarning yuqoridagi tartibi o'zgaradi. Ya'ni, tuyaning maysaga qo'shib quloqvoy yonboshlab olgan bargni ham yutib yuborishi, so'yilgan tuya qatqorni bilan och bo'riga yem bo'lishi, bo'rining tulki aytganini qilib balandlikdan pastga qarab yugurishi, shu vaqtda uning ichidan quloqvoyning bir sakrab tushib, tolning kavagiga kirib olishi singari ifodalangan. "Quloqboy" ertagidayuqoridagi ikki motiv orasiga Quloqvoyni it yeb qo'yishi voqeasi ham kiritilgan: Uch kundan beri och bo'lgan tuyaning yonida turgan yantoqqa qo'shib Quloqboy ham yeb qo'yadi: "Chol tuyani bo'g'izlabdi. Tuyaning ichidan o'g'lini qidiribdi, topolmabdi. Tuyaning go'shtini olib, ichak-chovoqlarini itga tashlabdi. Quloqboy ichak-chovoq ichida ekan, itning qorniga kirib ketibdi. It qornini to'yg'azib oftobda yaslanib yotgan ekan, Quloqboy qichqiribdi: — Ota, meni yaxshi ko'rasizmi yoki itingizni yaxshi ko'rasizmi? Meni yaxshi ko'rsangiz, itning ichidan chiqarib oling — debdi u. Chol: — Voy, bolam, seni yaxshi ko'raman-da, — debdi va itni o'ldiribdi. Itning qornini yorib Quloqboy toza qidiribdi, topolmabdi. Kun kech bo'libdi. Itning o'ligi dalada qolibdi. Kechasi bir och bo'ri kelib, uni yeb ketibdi. Quloqboy bo'rining ichiga kirib ketibdi."

Uch ertakning yakuni ham bir-birini takrorlamaydi: "Aytishlaricha, mitti Quloqvoy haliyam yaramas boylarni, ochofat kishilarning ta'zirini berib, chol-kampir – ota-onasiga xizmat qilib yurgan emish. Ana ertagim ham tamom, uzoq yillar bo'ling omon". Yuqorida ko'rinib turganidek, "Quloqvoy" sarlavhali birinchi ertak hali ham davom etayotgandek taassurot qoldirsa, shunday sarlavhali ikkinchi ertak Quloqvoyning oddiy insonlardek oila qurishi bilan yakun topadi: "Ota-onasi Quloqvoyni uylantirmoqchi bo'lishibdi. Shu mamlakat xo'jalarining Kaldaroz degan eng katta boshlig'ining bir qizi bor ekan. O'sha qizga sovchi bo'lib borishibdi. Aytganini berib, necha kun to'y-tomoshalar bilan haligi qizni Quloqvoyga olib berishibdi. Shu bilan Quloqvoy ham, uning ota-onasi ham murod-maqsadlariga yetishib, xursandlik bilan umr kechirishibdi". "Quloqboy" ertagi ham yaxshilik bilan ya'ni, to'y bilan yakun topadi: "qarindoshlarini chaqirib, Quloqboyga to'y qilib berishibdi. Shunday qilib, kampir bilan chol Quloqboydan dimog'i chog' bo'lib, murod-maqsadiga yetibdi".

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ertaklarning ijrochisi bir shaxs emas. Izlanishlarimiz natijasida shuni aniqladikki, "Sumbulqush" to'plamidagi "Quloqvoy"

ertagini Toshkent viloyatida yashovchi ertakchi Habiba Ziyayeva tilidan folklor materiallarini to'plovchi Jamoliddin Asomiddinov yozib olgan. "Gulpari" to'plamidagi shu nomdagi ertakni o'zbek folklori asarlarini to'plash va tadqiq etishda ko'plab samarali ishlarni amalga oshirgan folklorshunos olim- Malik Murodov Namangan viloyatida istiqomat qiluvchi Murodilla Ziyodilla o'g'li tilidan yozib olgan. "Odamtoy: to'plamidagi "Quloqboy" ertagini esa samarqand viloyatida yashovchi shaxs Jiyanboy Kuchumboy o'g'lidan to'plovchi Ernazarov yozib olgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yuqorida tahlilga tortilgan ertaklar yurtimiz bo'ylab keng tarqalgan.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, fikrimizcha, yuqorida tahlilga tortilgan uch ertak burungi vaqtlarda bir xil tarzda ijro qilingan bo'lishi mumkin. Vaqtlar o'tishi bilan ertakning asl variantidagi ba'zi motevlar unutilishi yoxud to'ldirilishi tufayli, ertakchilarning ijro mahorati va badiiy sayqallashi natijasida "Quloqvoy" ertagining turli variantlari paydo bo'lganligi haqiqatdan yeroq emas. Xususan, uch ertakning ham xalq orasida ijrochi va tinglovchilari bo'lganligi sababli bu ertaklar avloddan-avlodga o'tib, ertak yozib oluvchilarning sa'y-harakatlari va mashaqqatli mehnatlari tufayli bizgacha yetib kelgan. Bunday ertaklarni aniqlash va chuqur tadqiq etib, ommaga e'lon qilish bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev O. O'zbek xalq o'g'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 234 b.
2. Сумбул қуш: сеҳрли эртақлар. 19-жилд / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом, 2020. – 470 б.
3. Гулпарӣ: ўзбек халқ эртақлари: 38-жилд / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлик. – Тошкент: Renessans press, 2024. – 444 б.
4. Одамтой. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари 100 жилдлик. 44-жилд / Тузувчилар: Ш.Турдимов, А.Абдужалилов. – Тошкент: Madad oshiyoni, 2025. – 480 б.